

## OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOIY FUNKSIYASI

*Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li*

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti f.f.f.d. (PhD)*

*v.b.dotsent*

## СОЦИАЛЬНАЯ ФУНКЦИЯ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ

*Номозов Хуршид Шавкатович*

*Университет информационных технологий и менеджмента,*

*и.о. доцента, д.ф.ф.н. (PhD)*

## THE SOCIAL FUNCTION OF MASS MEDIA

*Nomozov Khurshid Shavkat ugli*

*University of Information Technologies and Management (PhD)*

*Associate Professor*



<https://orcid.org/0009-0007-6640-2845>

[nomozvnomozov2@gmail.com](mailto:nomozvnomozov2@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy funksiyalari, jamiyatdagi axborot uzatish vositalarining beqiyos o'rni, ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi salbiy va ijobiy jihatlarini ilmiy jihatdan ochib berilgan va dalillangan.

**Kalit so'zlar:** ommaviy axborot, OAV, shaxs, xulq-atvor, jamiyat, global, axborot, insoniyat.

**Аннотация:** В статье социальные функции средств массовой информации, несравненное место средств передачи информации в обществе, научно раскрыты и доказаны негативные и положительные стороны средств массовой информации в обществе.

**Ключевые слова:** массовая информация, СМИ, личность, поведение, общество, глобальный, информация, человечество.

**Abstract:** This article discusses the social functions of mass media and the unparalleled role of information transmission channels in society. The negative and positive aspects of mass media in society have been scientifically explored and substantiated.

**Key words:** mass media, media, personality, behavior, society, global, information, humanity.

### Kirish

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining (OAV) ijtimoiy funksiyalari jamiyatdagi axborot uzatish vositalarining ahamiyati va roli bilan bog'liq. OAV nafaqat axborot yetkazib beruvchi, balki jamiyatni boshqarish, axborot almashish va madaniy aloqalarni o'rnatishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Jamiyat hayotining har biri jabhasiga kerib borgan. Jamiyatda ijtimoiylashuvga yordam berishda OAV insonlarni

jamiyatning bir qismi sifatida ijtimoiylashishiga yordam beradi. Bu orqali fuqarolar o'z ijtimoiy roli, huquq va burchlari haqida ma'lumotga ega bo'lishadi. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash va ularni jamiyat hayotiga jalb qilishda OAVning roli katta. Jamiyat hayotida siyosiy kommunikatsiyadan foydalanishda OAV siyosiy axborotni tarqatish orqali jamiyatda siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Saylovlar, siyosiy kompaniyalar va

davlat boshqaruvi masalalarida aholining xabardorligini oshirish muhim vazifalardan biridir.

## **ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Xorij olimlaridan Harold Lassuell kommunikatsiya jarayonini tahlil qilib, uning uch asosiy funksiyasini belgilab berdi. Marshall McLuhan kommunikatsiya texnologiyalarining jamiyatga ta'sirini o'rganib, "Global qishloq" (Global Village) tushunchasini ilgari surgan. Uning fikricha, OAV jamiyatni globallashtirishga olib keluvchi asosiy omil bo'lib, texnologiya inson hayotini tubdan o'zgartiradi [1]. Paul Lazarsfeld ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik fikriga ta'sirini o'rganib, "ikki bosqichli kommunikatsiya modeli"ni taklif qildi. Unga ko'ra, axborot avval "fikir yetakchilari"ga (opinion leaders), so'ngra keng jamoatchilikka tarqaladi. OAVning reklamalar va targ'ibotdagi rolini keng o'rganib, uning iqtisodiy funksiyasini yoritgan.

Niklas Luhmann OAVni ijtimoiy tizim sifatida o'rganib, uning asosiy vazifasi jamiyatda o'zaro tushunishni shakllantirish ekanligini ta'kidlagan. U OAVni "ijtimoiy reallikni konstruksiya qiluvchi vosita" deb atagan. Denis McQuail kommunikatsiya nazariyasini rivojlantirib, OAVning ijtimoiy funksiyalarini batafsil tasniflagan axborot tarqatish, madaniyatni saqlash va rivojlantirish, ko'ngilochar vazifalar, jamoatchilikni birlashtirish. OAVning demokratik jamiyatdagi roli va mas'uliyatini chuqur o'rga nib chiqqan. Jurgen Habermas "jamoat sohasini" (public sphere) o'rganib, OAVning demokratiya va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi rolini ta'kidlagan [2]. U OAVni muloqot platformasi sifatida ko'rib, uning ijtimoiy adolat va barqarorlikka ta'sirini o'rgangan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Jamiyatda muloqot va integratsiya funksiyasiga OAV turli guruh va qatlamlar o'rtasida muloqotni ta'minlaydi, milliy birlikni mustahkamlashga ko'maklashadi hamda turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyatda ko'ngilochar funksiyasiga OAV odamlarni xushnud qilish, dam olish va hordiq chiqarish uchun turli ko'ngilochar kontentni taqdim etadi. Bu insonlarning ma'naviy va psixologik ehtiyojlarini qondirishda muhimdir [3].

Jamiyatda innovatsiyalarni targ'ib qilish funksiyasiga. Zamonaviy texnologiyalar va

yangiliklarni targ'ib qilish orqali OAV ijtimoiy taraqqiyotni rag'batlantiradi. OAVning ushbu funksiyalari jamiyatdagi axborot oqimining barqarorligi, fuqarolarning faolligi va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatda madaniyatni saqlash va uzatish OAV milliy va xalqaro madaniyatni targ'ib qiladi va kelajak avlodlarga yetkazadi. Bu orqali milliy o'zlikni anglash, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarni saqlab qolish ta'minlanadi. Masalan, madaniy dasturlar, hujjatli filmlar va tarixiy materiallar orqali milliy merosni ommalashtiradi.

Jamiyatda ijtimoiylashuvga yordam berishda OAV insonlarni jamiyatning bir qismi sifatida ijtimoiylashishiga yordam beradi. Bu orqali fuqarolar o'z ijtimoiy roli, huquq va burchlari haqida ma'lumotga ega bo'lishadi [4]. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash va ularni jamiyat hayotiga jalb qilishda OAVning roli katta. Jamiyat hayotida siyosiy kommunikatsiyadan foydalanishda OAV siyosiy axborotni tarqatish orqali jamiyatda siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Saylovlar, siyosiy kompaniyalar va davlat boshqaruvi masalalarida aholining xabardorligini oshirish muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, OAV siyosiy partiyalar va hukumatning jamiyat bilan o'zaro aloqa vositasi hisoblanadi. Favqulodda vaziyatlarda axborot berishda,

OAV tabiiy ofatlar, favqulodda vaziyatlar va xavf-xatarlar paytida aholini xabardor qilishda tezkor va ishonchli manba sifatida xizmat qiladi. Bu funksiyaning amalga oshirilishi odamlar xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari bozor va iste'molni shakllantirish, OAV tijorat reklamasi orqali iste'molchilarni yangi mahsulotlar va xizmatlar haqida xabardor qiladi, iste'mol talabi va bozorning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu iqtisodiy jarayonlarni rag'batlantirishda muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Jamiyat hayotida tinchlik va barqarorlikni targ'ib qilish. OAV mojarolarni bartaraf etish va tinchlikni saqlash uchun platforma yaratishi mumkin. Ayniqsa, xalqaro nizolar yoki ichki mojarolar paytida aholini tinchlantirish va barqarorlikni targ'ib qilishda ularning roli katta. OAVning ushbu ijtimoiy funksiyalari uni jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, OAVning samaradorligi va ishonchligi

uning shaffofligi, haqqoniyligi va axloqiy me'yorlarga rioya qilishiga bog'liq.

*Ommaviy axborot vositalari* ham shaxs ijtimoiylashuvida salmoqli rol o'ynaydi. "Ommaviy axborot vositalari, - deb yozadi mavzuning ushbu jihatini maxsus o'rgangan tadqiqotchilardan biri, - individni jamiyatga qo'shishning faol agenti hisoblanadi. OAV – ijtimoiy tajribaning asosiy translyatoridir, shu boisdan ommaviy axborot vositalarining ijtimoiylashuv jarayonidagi faoliyati o'ta muhimdir"[5]. Mulohazadan ko'rinib turibdiki, shaxs jamiyatda mavjud bo'lgan tajribalarni muvaffaqiyatli o'zlashtira olsagina, uning ijtimoiylashuv jarayoni samarali yakun topadi. Bu borada esa yetakchi rolni aynan ommaviy axborot vositalari o'taydi. Ommaviy axborot vositalari erkin faoliyat ko'rsatgan, turli senzuralardan xoli bo'lgan jamiyatda shaxs ijtimoiy tajribalarni biror bir to'siqlar va cheklovlarsiz o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi, buning natijasida uning ijtimoiylashuvi jarayoni liberal xarakter kasb qiladi[6]. Aksincha, ommaviy axborot vositalari oldiga qo'yilgan har qanday cheklov pirovardida shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining zaiflashuviga, uning biryoqlama kechishiga sabab bo'ladi.

#### XULOSA

OAVning ijobiy ta'sirini oshirish uchun sifatli axborot tarqatish, shaffoflikni ta'minlash va axloqiy tamoyillarga rioya qilish zarur. Salbiy ta'sirlarning oldini olish uchun axborotni tarqatish jarayonini nazorat qilish, dezinformatsiyaga qarshi kurashish va milliy madaniyatni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. OAV jamiyat rivojlanishining ajralmas qismi bo'lib, uning ijtimoiy funksiyalari ijobiy va salbiy tomonlari bilan birga keladi. OAVdan samarali foydalanish va uning mas'uliyatini oshirish jamiyatni rivojlantirish va barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, texnologik taraqqiyot sharoitida OAVni nazorat qilish va axborot sifatini oshirish zarur.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat o'g'li, N. X. (2024). Internet-makon mohiyati, genezisi va zamonaviy tarkibi. *Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar*, 1(2), 48-51.
2. Shavkat o'g'li, N. X. (2024). Jamiyat ijtimoiylashuvida institutlari o'rni va internet-makonning undagi o'rni. *Analysis of modern science and innovation*, 1(2), 83-88.
3. Shavkat o'g'li, N. X. (2024). Jamiyatda internet-makon kontentlari ta'sirida sodir bo'layotgan negativ ijtimoiylashuv shakllari. *Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar*, 1(2), 52-58.
4. Shavkat o'g'li, N. X. (2024). Jamiyatda internet-makon resurslaridan foydalanish sohalari. *Modern problems in education and their scientific solutions*, 1(2), 113-118.
5. Зейтуния М.А. Роль СМИ в процессе социализации молодежи.// Вестник Адыгейского государственного университета, 2009, №1.- С.142.
6. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "Интернет-макон имкониятларидан фойдаланишда ахлокий маданиятнинг ахамияти." *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development* 1.3 (2023): 4-9.
7. Shavkat o'g'li, N. X. (2023). Интернет-макон имкониятларидан фойдаланишда ахлокий маданиятнинг ахамияти. *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development*, 1(3), 4-9.
8. Shavkat o'g'li, N. X. (2022). Threats to information security in educational institutions. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 229-231.
9. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "Yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda internetning roli." *philosophy and life international journal*. 3 (18) (2022).